




2024-yilning yanvar–iyun oylarida 8 034 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 97,9 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (jami nisbatan 38,4%), sanoat tarmog‘ida (9,3 %), qurilish tarmog‘ida (7,0 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (9,3%), axborot va aloqada (6,6 %), tashish va saqlash (4,2 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (2,0 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (0,8 %) va boshqa tarmoqlar (22,4 %) tashkil etgan.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda



2024- yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 23 837,3 mlrd.so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 34,6 %) ni tashkil qiladi;



– investitsiyalar hajmi 14 526,4 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 35,6 %) o‘zlashtirildi va 2023-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 130,9 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 12 740,5 mlrd.so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 66,1 %) va 2023-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 97,6 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 42 919,0 mlrd.so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 37,5 %), 2023-yilning yanvar– iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,7 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 29 911,2 ming.tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 38,9 %), 2023 yilning yanvar – iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,0 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 491 362,5 ming.yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 74,8%), 2023-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,0 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 22112,9 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 55,0 %), 2023-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,9 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 539,1 mln AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 20,3 %), 2023-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 91,9 % ni tashkil qildi;

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi


(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)

Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (3466,8 mlrd.so‘m), Yashnobod (2713,0 mlrd. so‘m), Chilonzor (2679,0 mlrd. so‘m), Sergeli (2349,9 mlrd. so‘m), Bektemir (2258,7 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (1925,6 mlrd. so‘m), Yunusobod (1591,6 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yakkasaroy (1583,8 mlrd. so‘m), Mirobod (1552,8 mlrd. so‘m), Shayxontohur (1297,6 mlrd. so‘m), Uchtepa (1289,1 mlrd. so‘m) va Yangihayot (1129,4 mlrd.so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.



2024 -yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi



2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati






Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Chilonzor (4514,2 mlrd.so'm), Uchtepa (3070,5 mlrd.so'm), Yunusobod (2422,9 mlrd.so'm), Shayxontohur (2149,0 mlrd.so'm), Olmazor (1718,6 mlrd. so'm) va Yashnobod (1519,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirzo Ulug'bek (1452,5 mlrd. so'm), Bektemir (1302,9 mlrd. so'm), Sergeli (1277,3 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1231,2 mlrd. so'm), Mirobod (1152,0 mld.so'm) va Yangihayot (305,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Yunusobod (3361,3 mlrd. so'm), Mirobod (2667,0 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (2159,0 mlrd.so'm), Yakkasaroy (1960,4 mlrd. so'm) va Chilonzor (1714,0 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi. Yashnobod tumani (1622,0 mlrd. so'm), Shayxontohur tumani (1561,9 mlrd.so'm), Olmazor tumani (1419,0 mlrd.so'm), Yangihayot tumani (887,1 mlrd. so'm), Sergeli tumani (713,3 mlrd.so'm), Uchtepa tumani (656,0 mlrd.so'm) va Bektemir tumani (567,7 mlrd.so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.



2024-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi hajmi va ulushi



Investitsiya sohasi bo'yicha eng yuqori hajmlar Mirzo Ulug'bek (2106,0 mlrd. so'm), Yunusobod (1991,7 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1674,1 mlrd.so'm), Shayxontoxur (1438,4 mlrd.so'm) Uchtepa (1276,5 mlrd.so'm) va Yashnobod (1268,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Mirobod (1081,6mlrd.so'm),Sergeli (1016,6 mlrd. so'm) Chilonzor (871,0 mlrd. so'm), Olmazor (851,6 mlrd. so'm), Yangihayot (708,1 mlrd. so'm), Bektemir (241,9 mlrd. so'm) tumanlarida investitsiya hajmi past bo'lib qolmoqda.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Mirobod (5 499,9 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (5 170,3 mlrd. so‘m), Yunusobod (5 090,0 mlrd.so‘m), Mirzo Ulug‘bek (5 084,4 mlrd. so‘m), Chilonzor (4489,0 mlrd.so‘m), Olmazor (3688,3mlrd.so‘m), Yashnobod (3 561,9 mlrd. so‘m) va Shayxontoxur (3 502,8 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Sergeli (2 190,9 mlrd.so‘m), Uchtepa (2 053,0 mlrd.so‘m), Bektemir (1 518,5mlrd.so‘m) va Yangihayot (1070,0mlrd.so‘m) tumanlari hisoblanadi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Chakana savdo
Toshkent shahri	34,6	66,1	37,5	55,0
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	42,8	68,5	37,8	85,9
Mirzo Ulug‘bek	40,7	74,0	43,8	48,3
Mirobod	36,6	66,2	44,2	36,6
Olmazor	63,7	64,6	41,0	57,3
Sergeli	29,4	81,1	36,5	48,7
Uchtepa	24,3	76,4	32,4	81,6
Chilonzor	44,6	84,3	37,0	62,8
Shayxontohur	32,5	41,9	27,3	47,9
Yunusobod	67,0	37,2	27,5	55,6
Yakkasaroy	38,4	79,5	51,5	38,1
Yashnobod	18,8	86,5	36,5	45,8
Yangihayot	22,8	76,9	59,0	52,5

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yunusobod (67,0%), Olmazor (63,7 %), Chilonzor (44,6%), Bektemir (42,8%), Mirzo Ulug‘bek (40,7%), Yakkasaroy (38,4%), Mirobod (36,6%), Shoyxontoxur (32,5%), Sergeli (29,4%), Uchtepa (24,3%), Yangihayot (22,8%), va Yashnobod (18,8%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yashnobod (86,5%), Chilonzor (84,3%), Sergeli (81,1%), Yakkasaroy(79,5%), Yangihayot (76,9%) Uchtepa (76,4%), Mirzo Ulug‘bek (74,0%), Bektemir (68,5%), Mirobod (66,2%), Olmazor (64,6%), Shayxontoxur (41,9%), va Yunusobod (37,2%), tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (59,0%) Yakkasaroy (51,5%) Mirobod (44,2%), Mirzo Ulug‘bek (43,8%), Olmazor (41,0%), Bektemir (37,8%), Chilonzor (37,0%), Sergeli (36,5%), Yashnobod (36,5%), Uchtepa (32,4%), Yunusobod (27,5%) va Shayxontohur (27,3%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Bektemir (85,9%), Uchtepa (81,6%), Chilonzor (62,8%), Olmazor (57,3%), Yunusobod (55,6%), Yangihayot (52,5%), Sergeli (48,7%), Mirzo Ulug‘bek (48,3%), Shayxontohur (47,9%), Yashnobod (45,8%), Yakkasaroy(38,1%) va Mirobod (36,6%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2024-yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,4 % ni tashkil qildi (2023-yilning yanvar–iyun 50,8 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 2,4 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2024-yil yanvar–iyun oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 3920 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma‘lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 26,7 % i qulay va 62,7 % esa qoniqarli, qurilish sohasida 34,2 % qulay va 52,1 % esa qoniqarli, savdo sohasida 31,2 % qulay va 61,1 % qoniqarli, xizmatlar sohasida 34,3 % qulay va 57,8 % qoniqarli ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatlarda 7,9 %, qurilishda 13,7 %, savdoda 7,7 % va sanoatda 10,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2024- yil yanvar-iyun oylarida, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o'rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkiclardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'yektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.